



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

**“ZAMONAVIY FILOLOGIK TADQIQOTLAR: NAZARIYA, AMALIYOT,
INNOVATSIYA” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI**
Navoiy, 2025-yil 14-noyabr

**РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ НА
ТЕМУ «СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ТЕОРИЯ, ПРАКТИКА, ИННОВАЦИЯ»**

Навои, 14 ноября 2025 года

**“MODERN PHILOLOGICAL RESEARCH: THEORY, PRACTICE,
INNOVATION” a Republican scientific-practical conference**

Navoi, november 14, 2025 year

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANINING TASHKILIY QO'MITASI

Jurabek Yorqulovich Mavlonov – Navoiy innovatsiyalar universiteti rektori

Rais:

Kamol
Namozovich
Kadirov

Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasini mudiri, filologiya fanlari
nomzodi, professor

A'zolar:

Alijon
Bahodirovich
Ergashev

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi
prorektor

Shuhrat
Jumaqulovich
Xudoyorov

O'quv ishlari va ilmiy-innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fizika-
matematika fanlari nomzodi, dotsent

Nasiba Jumayevna
Yarashova

Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasini professori, filologiya
fanlari doktori (DSc)

Nargiza
Sa'dullayevna
G'ulomova

Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari
doktori (DSc)

Faxriddin
Toshpo'lotovich
Rajabov

Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Nigora
Nuriddinovna
Sharipova

Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ra'no
Maxmudovna
Payzullayeva

Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Temur
Abdimurotovich
Hasanov

Xo'jalik ishlari va hisob boshqarmasi boshlig'i

Akmal
Azamatovich
Kurbanov

Raqamli axborot texnologiyalari (IT) markazi rahbari

Fayziyev Eldor

Matbuot va PR-xizmati bo'limi boshlig'i

TAHRIR HAY'ATI

M.N.Sanoyeva	Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
N.B.Kobulova	Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAQRIZCHILAR

N.Murodova	Navoiy davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Z.Mamadaliyeva	Jizzax davlat pedagogika instituti universiteti dotsenti, f.f.n.
G.Zaripova	Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti
M.Xalilova	Navoiy innovatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi

e'tibor qaratadigan bo'lsak, ijtimoiy hayot tilning yashashi uchun qanchalik muhim bo'lsa, millatning millat sifatida yashab qolishi uchun til birligi ham shu qadar ahamiyatli. Chunonchi, millatning o'ziga xosligini namoyon qiluvchi milliy urf-odatlar: milliy muomala-munosabat, milliy marosim, milliy yashash tarzi, bir so'z bilan aytganda milliy o'ziga xoslik til bag'rida umrguzaronlik qiladi. Shu bois millat saodati yo'lida jon fido etgan A.Fitrat «Rahbari najot» asarida tilning yosh avlod hayot tarziga ta'siri masalasiga e'tibor qaratib yozgan edi: «*Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar*». Chindan ham ona tili bilan birga insonda o'zbekona milliy ruh, milliy muomala madaniyati, milliy ong, qisqasi, milliy o'zlik shakllanadi.

Milliy tilimiz milliy nutqimiz, milliy ma'naviyatimiz va mafkuramizning tarkibiy qismi sifatida yuksalib boradi.

Har qaysi millat mavjudligining, rivojlanayotganligining asosiy belgisi bo'lib faqatgina bir til xizmat qiladi, bu ham bo'lsa so'zlovchining o'z ona tilidir. Xalqlarning o'z madaniyatini bir tilda rivojlantirishga intilishi tabiiy hol bo'lib, har bir madaniyatni faqat milliy til asosida erkin, mustaqil va tez sur'atlar bilan gullab-yashnatish mumkin – natijada o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan mustaqil haqiqiy milliy madaniyatli xalq jahon miqyosida juda katta obro'ga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. А.Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Кошғарий М. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Уч томлик. I том. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти. 1960, – 500 б.
3. Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. Т., 1994. 66 б.

MIR ALISHER NAVOIY ASARLARIDA RANGLAR JILOSI

Dilorom Nigmatovna YULDASHEVA
filologiya fanlari doktori, professor,
Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston, Buxoro

Annotatsiya. Turkiy olamning ma'naviy dunyosi shakllanishiga kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' allomalardan biri hazrat mir Alisher Navoiy ekanligi aksioma darajasidagi haqiqatdir. Bugun uning nomi, ijodiy merosining boqiyliigi, badiiy ijod dahosi zamon va chegara bilmasligi ham faqat turkiylar uchungina emas, dunyo ahliga ayon. Ijodkor asarlarida qo'llanilgan rang-tus sifatleri ham nihoyatda serjiloligi bilan ajralib turadiki, ularni o'rganish, tahlilga tortish tadqiqotchi uchun ummondan dur terish bilan barobar.

Kalit so'zlar: shoir mahorati, badiiy qiymat, sariq rangni ifodalovchi birliklar, qizil rangli qimmatbaho tosh, so'zlar jilosi.

Annotation. There is no doubt that Hazrat Mir Alisher Navoi is one of the greatest scholars who exerted a powerful and effective influence on the formation of the spiritual world of the Turkic world. Today, his name, the immortality of his creative legacy, the unrivaledness of his artistic genius, and his transcendence of time and borders are known not only to Turks but to peoples throughout the world. The artist's color schemes are also distinguished by their extraordinary originality, making their study and analysis for a researcher akin to searching for a bottomless ocean.

Key words: poetic skill, artistic value, units representing yellow color, red gemstone, interpretation of words.

Favqulodda iste'dod egasi, ilm-u amal shoir hazrat mir Alisher Navoiy qoldirgan ma'naviy meros faqat o'zi yashagan davr uchun qimmatli bo'lib qolmadi, balki shoir asarlarida yoritilgan masalalar ham, ularda qo'llanilgan har bir so'z, birikma yoki boshqa grammatik birliklar ham barcha davrlar uchun yetarlicha material bera oladigan tuganmas bebaho manbaga aylandi. Zero, bu ulug' pining javohirot xazinasidan davlat boshqaruvi, ijtimoiy muammolar yechimi, o'zlikni tanimoq, jism-u jon, surat-u siyrat tarbiyasi masalalaridan tashqari insoniyatning ma'naviy dunyosi, ruhiy tiynati negaki tashnalik sezsa, barchasini undan topa oladi. Hamma gap g'avvoslikda. G'avvosning hazrat ma'naviy ummonining tub-tubiga shung'iy olishida. Umuman olganda, mutafakkir ijodkorning ilmiy, badiiy asarlari ijtimoiy turmushning har bir jabhasi uchun, shuningdek, falsafa, mantiq, siyosatshunoslik fanlari qatori adabiyotshunoslik, lisonshunoslik sohalari uchun ham metodologik manba vazifasini bajara olishi shubhasiz.

E'tiborimizni ijodkor asarlarida qo'llanilgan ikki rang – sariq va qizil sifatlarining ifodasi tortdi. Zotan, hazrat mir Alisher Navoiy asarlarida rang-tus sifatleri o'ziga xos tarzda qo'llanilganligining guvohi bo'lamiz. Jumladan, "Xamsa" tarkibida turuvchi "Sabbayi sayyor" dostonining XXI qismi boshlanishida shunday izoh bor:

*Yakshanba kuni Bahromning quyoshdek **zarbaft** libos kiyib, **gunbadi** zarnigorg'a azm qilib, sarig' hullalig' hur bila bazmi aysh tuzub, **oltun** sog'arda **asfar** may ichgoni, yo'qkim, quyoshning **sarig'** guli ochilg'oni chog'din oftob **zardig'**acha anga bir yilcha kechgoni [2, 469-b.].*

Keltirilgan parchada *sariq* rangi ma'nosini *zarbaft*, *gunbadi*, *oltun*, *asfar*, *zard* so'zlari orqali ham ifodalaydi. Bu o'rinda *zarbaft* (zardo'zi) forsiy so'z bo'lib, ya'ni sariq rangdagi zar ip bilan tikilgan zarrang (to'n), ya'ni sariq (libos) ma'nosini beradi. Siradagi *gunbadi*, *oltun*, *zard* so'zlari ham, odatda, sariq rang ma'nosini beruvchi variant birliklardir. Shu o'rida *gunbadi* so'zi ma'nosiga e'tibor qarataylik. Shoir "Xamsat ul-mutahayyiriyn" asarida Abdurrahmon Jomiy vasfni bayon qilib quyidagi misralarni keltiradi:

*Kim **gunbadi** gardandayi oliy bunyod,
To davrida ta'jilg'a bo'lg'ay mo'tod,
Odamki bo'lub xalifa yoydi avlod,
Avlodida bir uyla xalaf bermas yod.*

Ma'nosi: (Yaratgan tomonidan) oliy holda bunyod qilingan (buni inson zoti qo'li bilan yarata olmaydi) aylanib turuvchi gumbaz (ya'ni quyosh), Toki falakda shoshilishga odat qilib aylanar ekan (ya'ni bu yorug' olamda tiriklik bor ekan), Odam Yaratganning yerdagi xalifasi (odam ongli mavjudot sifatida Yaratganning yerdagi tajallisi) bo'lib shu qadar zurriyot yoydiki, Avlodida Jomiy kabi zurriyoti bo'lganligini yod qila olmaydi (ya'ni, insoniyat inson farzandlari orasida Jomiydek ulug' zot o'tganini to'la his etmaydi).

Demak, Abdurahmon Jomiy vasfi keltirilgan mazkur she'rning birinchi misrasida ishlatilgan *gunbadi* so'zi aylanib turuvchi gumbaz, ya'ni quyosh ma'nosida qo'llanilgan. Quyoshning nurlari, odatda, sariq rangda bo'lganligini hisobga olsak, yuqoridagi parchada ham *gunbadi* so'zi predmet nomi sifatida emas, sariq rang ma'nosida qo'llanilganligiga guvoh bo'lamiz.

Siradagi asfar (اصفر) arabcha so'z bo'lib, sariq demakdir. Shuningdek, asfar Sudan(Sharqiy Afrika)dagi (Nil daryosining o'ng irmog'i hisoblangan (uzoqdan sariq rangda ko'rinuvchi) daryo nomi; musulmon xalqlarida sariq rangli bo'lib tug'ilgan o'g'il bolalarga qo'yiladigan ism ham hisoblanadi.

Alxusus, shoir birgina parchada sarig' dominantasi atrofida shu rang ma'nosini beruvchi *zarbaft*, *gunbadi*, *oltun*, *asfar*, *zard* kabi beshta variantni qo'llaydi.

Shoir asarlarida qizil rangni bildiruvchi so'zlar miqdori 15 tadan ortiqqligini kuzatamiz, jumladan, shu rang nomini beruvchi paradigmadan *ol*, *surxr*, *ahmar*, *shingarf*, *lavn*, *alvon*, *humrat*, *rangi noriy*, *la'l*, *baxrom*, *shafaqrang*, *gulnoriy*, *yoqut*, *may* kabi birliklar o'rin olgan.

Buni "Sabbayi sayyor" dostonining XXIII qismida boshlanishidagi izohdan kuzatamiz: *Bu bob seshanba kuni Bahromning gulnoriy qasrda o'tkazgan kun haqida, Sarlavhada qizil rangni anglatuvchn so'zlar birikmasidan mohirona foydalanilgan: gulrang libos, gulnoriy qasr, shafaqrang libosli quyosh (go'zal), yoqutrang qadah, yoqut-u la'l dori, may kabi so'zlardan qizillik ma'nosini ifodalovchi tanosub san'ati qo'llanilgan* [2, 472-b.].

Yana bir misol.

Ko'zum qizardi, qizil ashk rangidin garchi

Qizil bo'lur su-yu, bo'lmas anga hubob qizil [1, 198-b.].

Oshiqning ko'z yoshlari qon (qizil rangda) bo'lib oqyaptiki, uning ko'zlari qizarishi shundan.

Baytda qizil so'zi shu rang ma'nosini beruvchi paradigmada dominanta bo'lib keladi va ifodalanayotgan mazmunga nisbatan neytrallik kasb etadi, ya'ni belgi-xususiyatlar ifodasiga ko'ra oraliq holatda turadi. Shoir qizil rangiga eng yaqin variant sifatida arabcha tarixiy etimologik qatlamga xos *ol* hamda eroniy etimologik qatlamga oid *surx* so'zlaridan ham foydalanganligini kuzatamiz. Jumladan,

Bir qadah may birla bo'ldi surxro' ahli xumor,

Kun aro go'yoki mahlul aylamish xammor la'l.

Baytdagi *may*, *la'l* so'zlari ham, *surx* so'zi ham qizil ma'nosini bermaqda, ya'ni "Ahli mushtoq bir qadah qizil mayni ichib yuzlari surx (qizil) bo'ldi, go'yoki la'l (qizil rangli qimmatbaho tosh)ga aylanishdi".

Chu yozding subhig'a yorliq bosarg'a ol tamg'asin,

Shafaqdin hal qilib shingarf qilding, mehrdin xotam[1, 206-b.].

Baytda qizil rang-tusining yana uch varianti qo'llanilgan.

Bo'ldi yer qonlari bila gulfom,

Ko'rki, gul faslidur ne xush ayyom.

Do'stlar g'arq gul aro to farq,

Yana dushman bu nav' gul aro g'arq [2, 555-b.].

Keltirilgan masnaviy shakllaridagi gul so'zi ham qizil rang ma'nosida qo'llanilgan. Ya'ni "Do'stlar **gul**ga g'arq edilar (atroflari gul, bahor edi), dushmanlari ham **gul**ga g'arq yotardi (ammo farqi shu ediki, ular (dushmanlar) g'arq bo'lgan "gul"– qizillik ularning o'z qonlari edi)". Shoir iyyom san'atidan ustalik bilan foydalana olganligi tahsinga sazovor.

Yana bir o'rinda shoir "O'lmasun" radifli g'azalida oshiqning holatini shu rang bilan bog'lab yozadi:

Dema, ashking nega gulrang-u ko'zung gulfom erur,

Hech kimning yori gulro'y-u gulandom o'lmasun.

Ya'ni, oshiqdan nega ko'z yoshlaring qon-u ko'zlaring qizil deb so'ramagin, zotan, hech kimning sevar yori gul yuzli-yu gul chehrali bo'lmasin.

Demak, 1-mazmunga ko'ra: Ma'shuqa shu qadar go'zal va, ayni paytda, bemehrki, bu oshiqning ko'zlaridan oddiy yosh emas, qizil qon oqishiga sabab bo'lmoqda (misrada go'zal g'uluv qo'llanilgan). Shoir baytda qon so'zini qo'llamaydi, biroq **gulrang** birligi bilan unga ishora qiladi. Qon oqayotgan ko'z ichi ham **gulfom** (qip-qizil);

2-mazmunga ko'ra: Ma'shuqaning yuzlari **gulro'y-u gulandom** (qizil, qirmizi tusda). Mashuqa yuzining rangi unga termulib turuvchi oshiqning ko'zlariga singib qolgan. Shundan mashuqaning yuzlaridan rang olgan sevguvchining ko'zlari ham, ko'z yoshlari ham qizil tusda.

Bayt, bir qaraganda, oshiqning ko'zlari mashuqaning jabridan qizargan, degan mazmunni bersa, ikkinchi tomondan, oshiq mashuqaga shu qadar maftunki, hatto go'zal yorning yuzlari rangi oshiqning ko'zlariga singib qolgan, degan iyyomni ifodalaydi. (Tabiatan, inson bir narsaga kiprik qoqmay uzoq termulib turganda ko'zlari qizarishi, avval, quruqlashib, keyin yoshlanishi mumkin.)

Tahlilga tortilgan misollarda qo'llanilgan barcha o'zlashma qatlamga xos sariq, qizil ranglarini ifodalovchi so'zlar belgining ortiqqligini ko'rsatish uchun xizmat qilgan. Demak, sifatning orttirma darajasi leksik usul bilan, shuningdek, o'zga tillarga oid leksik birliklar orqali ham namoyon qilingan. Shoir Alisher Navoiyning so'z ma'nosini juda teran mushohada etishi va ulardan nazmiy javohirlarida o'rinli hamda ta'sirchan foydalana olishi kitobxonni qayta-qayta hayratga solaveradi. Shoir qizil, alvon, ol ma'nolarini beruvchi *lavn*, *humrat* so'zlarini arab tilidan, forsiy tildan *may*, *la'lgun*, *maygun*, *lolagun*, *lolavor*; turkiydan *lolazor*, *lodayuz*, *shafaqrang* birliklarini olib qo'llaydiki, bu shoirning boshqa tillarni ham o'z ona tilidek o'zlashtirganini dalillaydi.

Hazrat mir Alisher Navoiy o'z asarlarining serjilo, purma'no va uslubiy jihatdang rang-barangligini ta'minlash uchun rang-tus ma'nosini beruvchi so'z variantlaridan ham unumli va o'rinli foydalana olgan. Bu esa, so'z variantlarining

ifoda imkoniyati belgining ortiqqligini ko'rsatib berishga xizmat qilishi bilan birga, uslubiy rang-baranglikni ham ta'minlagan.

ADABIYOTLAR:

1. Навоий Алишер. Наводируш-шабоб. 8-том. –Тошкент, 2006.–382 б.
2. Навоий Алишер. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдли. Еттинчи жилд.– Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 469-668.
3. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ (иборат аз 2 ҷилд) Ҷ. 1 А — Н (нашри дувум)/ Таҳрир: С. Назарзода, А. Сангинов, С. Каримов, М. Ҳ. Султон/. – Душанбе 2010.
- 4.Yuldasheva D.N. Sukut diskursning tarkibiy qismi sifatida (badiiy asarlar asosida): Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2024. – 73 b.
- 5.Yuldasheva D.N. Sukut nutqiy muloqot komponenti. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 164 b.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. –Тошкент: ЎЗМЭ, 2005. – Б.277.

NAVOIYNING ILM HAQIDAGI MULOHAZALARI

Tohir XO'JAYEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Hamma davrlarda yoki ma'lum vaqtlarda tilimizda, xalq orasida ko'p ishlatiladigan so'zlar bo'ladi. Vatan, ona, til, ishq, ilm, bilim, hunar kabilar barcha davrning eng faol va hammaga tushunarli so'zlardir. Keyingi yillar va ayni paytda ilm-fan, bilim so'zini takror-takror eshitayapmiz. Bu – tabiiy. Vatan ravnaqi, millat kelajagi ilmga bog'liqligi yanada oydinlashib bormoqda. Ilmga munosabat, uning ahamiyati, zaruriyati millat ziyolilarining doimiy e'tiboridagi tushunchalardan biri. Xalqimiz ilmsevar, uning qadrini, mohiyatini yaxshi anglaydi. Xalq og'zaki ijodi asarlari, ayniqsa, maqol, ertaklarni eslab ko'raylik. Maqollardagi “Baxt belgisi – bilim”, “Bilagi zo'r birni yiqar, Bilimi zo'r – mingni”, “Ilm – aql bulog'i”, “Ilm baxt keltirar, Bilim taxt keltirar”, “Ilm – tubsiz quduq”, “Ilm olish – nina bilan quduq qazish”, “Ilmli odam – ilikli suyak”, “Ilmsiz bir yashar, Ilmli ming yashar”¹ va hokazo. Xalqimiz orasida eng mashhuri “Ilm igna bilan quduq qazishdir”, “Ilm igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli”. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida ham bir necha o'rinda ilm, bilim haqida gapirib o'tiladi. Bir maqolda “Qut belgo'si bilik” – “Baxt belgisi ilm va aqlidir” deyilsa, she'rda “ilmli, aqlli odamlarga yaxshilik qilib, so'zlarini tingla. Ilmlarini, hunarlarini o'rganib amalga oshir”² deydi. Yana bir o'rinda o'g'liga nasihat qilib, “El-yurt orasida ulug' olim bo'l, ilmingni tarqat” degan jumla tilga olinadi (85-bet).

Ilm, bilim diniy bo'lsin, dunyoviy baribir ilm-da. Bu mavzuning eng ko'p ifodasini hadislarda kuzatamiz. Imom Buxoriyning “Al-jomi' as sahih” asarlarini o'qigan kitobxon buning tasdig'ini topadi. 1-kitobning “Ilm kitobi” qismida ellik

¹ O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: “Sharq”, 2005. – 137-140-betlar.

² Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Uch tomlik. 1-tom. – Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960. 403-bet.

MUNDARIJA

SO‘ZBOSH		
1-ShO‘BA. ALISHER NAVOIY IJODIYOTI: TADQIQ, TALQIN, MOHIYAT		
1.	J.ELTAZAROV, M.BOBOTAYEV O‘zbek shevalari leksikasini parametrik o‘rganish tarixidan (Mahmud Koshg‘ariy hamda Alisher Navoiyning leksikografik asarlari misolida)	
2.	У.ҚОБИЛОВ Алишер Навоий шеъриятида мифологик тимсоллар талқинига доир	13
3.	А.ЭРКИНОВ Алишер Навоий асарлари қўлёзмалари – дунё кезади	20
4.	М.РАВШАНОВ Меҳнат ва ижодкорлик ғояларининг аҳамияти ҳақида Алишер Навоий асарларининг ўрни	24
5.	N .	27
6.	В.ЖО‘RAYEVA М.Кoshg‘ariy va A.Navoiy merosida turkiy til ta’rifi	31
7.	D.YULDASHEVA Mir Alisher Navoiy asarlarida ranglar jilosi	35
8.	T.XO‘JAYEV Navoiyning ilm haqidagi mulohazalari	39
9.	N.G‘ULOMOVA Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun semantik bazani yaratishda ikki yondashuv	43
10.	К.КАДИРОВ Алишер Навои - гений узбекской и мировой поэзии, мыслитель и государственный деятель	49
11.	V.ChO‘LIEVA Jaloliddin Rumi va Alisher Navoiy g‘oyalaridagi mushtarakliklar	55
12.	N.ShARIPOVA Navoiy she’riyatida sari’ bahrining o‘rni	58
13.	Ф.РАЖАБОВ Алишер Навоий ижодининг “Ҳавас ва ҳасад” асари бадииятидаги ўрни	61
14.	G.NOROVA Alisher Navoiy ijodiyoti: tadqiqi, talqin, mohiyat – til va uslub uyg‘unligi	64
15.	.	72

16.	M.РАВШАНОВ Заслуги Алишера Навои в изучении развития тюркских языков	76
17.	Sh.SUYUNOV Navoiy asarlarida oila va farzand tarbiyasining pedagogik talqini	78
18.	С.КОДИРКУЛОВА Многогранная личность всеволод рождественский как переводчик лирики Навои	81
19.	D.TAMIKAYEVA Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoniga xos iboralarning o‘rganilish tarixi	87
20.	M.SATIYEVA “Mezon ul-avzon” risolasidagi muttafiqlar ul-arkon va muxtalif ul-arkon guruhlariga oid bahrlar talqini	90
21.	Р.ШОДИЕВА Педагогические принципы Алишера Навои	96
22.	Н.ХАКИМОВА Философские размышления Алишера Навои в его произведениях	98
23.	M.IKROMOVA “Sab’al sayyor” dostonining g‘oyaviy-estetik mazmuni	101
24.	Г.ЗАРИПОВА Бесценная мудрость, глубокие суждения и философские мысли в произведениях Алишера Навои	104
2-ShO‘BA. FILOLOGIK TADQIQOTLAR: FANLARARO MUNOSABAT VA ZAMONAVIY TALQIN		
25.	. Yivoji – millat kelajagiga poydevor	107
26.	M.ABUZALOVA W F	111
27.	Г.ТОИРОВА Қалб, шаҳар, жараён: Бухоро биенналесининг троика-концепти	116
28.	.	123
29.	h	127
30.	Z.RAXIMOV O‘qituvchi faoliyatida nutq kompetensiyasi: metakognitiv tafakkur va kasbiy samaradorlik uyg‘unligi	131
31.	. Ksar tilining leksik tahlili (Erkin A‘zam asarlari misolida)	134

32.	.	137
33.	B.TUXTAYEVA Adabiyot o'qitishda muammoli savolning o'rni	141
34.	E.QILICHOVA Ilmiy til (terminologiya)ning leksik-semantik xususiyatlari	144
35.	И.ПОДИЕВА Сравнительный анализ перевода фразеологических единиц узбекского и русского языков	148
HO'BA. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK RIVOJNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI		
36.	N.YARASHOVA Alisher Navoiy asarlarida "nafs" konseptining pragmatik tadqiqi	152
37.	M.XUSANOVA O'zbek tilida faxriy unvon va mukofot nomlarining semantik tahlili	156
38.	Обзор корпусных подходов к анализу художественных текстов	158
39.	U.IBRAGIMOVA, N.YUSUPOVA Ta'lim bosqichlari dastur va darsliklarida "Erkin Vohidov ijodida sintaktik sinonimlarning qo'llanilishi" mavzusining berilishi	163
40.	З.РУЗИЕВА Аксиологический потенциал глагольных форм в контексте междисциплинарных филологических исследований	166
41.	Р.БИКСАЛИЕВА Лингвокреативная модель в.пелевина в эпоху постязыка	172
42.	А.ЮНУСОВ Сленг в современном русском языке: концепция и проблемы	174
43.	M.SANOYEVA N	178
44.	Mustaqillik davri she'riyatida mumtoz adabiyot an'analari	180
45.	.	184
46.	Z.MALLAYEVA Cognitive nature of precedent names in the english language	188
47.	E.RO'ZIYEV Fuzuliy ijodiga munosabat: an'ana va izdoshlik	191
48.	A.DAVLATOVA	195



**"ZAMONAVIY FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
NAZARIYA, AMALIYOT, INNOVATSIYA"
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMANIDAGI FAOL ISHTIROKI UCHUN**

YULDASHEVA DILOROM

SERTIFIKAT

bilan taqdirlanadi

**NAVOIY INNOVATSIYALAR
UNIVERSITETI REKTORI**



**s.f.d., professor
J.Y. Mavlonov**